

UDK: 619.616.591.8.053

**QUYONLARDA GELIOTROP VA KAPRIRCHOPON O'SIMLIKLARINING VEGETATIV VA GENERATIV SHAKLLARIDAN ZAHARLANISHDA KLINIK BELGILAR**

*Abduraimova G.T. - tayanch doktorant,  
Sultanova I.Y. - v.f.f.d.,  
Emurodov B.A. - v.f.d., professor  
Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti*

**Annotatsiya:** Maqolada geliotrop va kampirchopon o'simligining poyasi, bargi va guli aralashmasi va geliotrop urug'ini tajriba quyonlari ozuqa massasining miqdoriga 50%, 30%, 10% miqdorda qo'shib berilganda quyonlarda kuzatiladigan zaharlanishning muddati, tajriba davomida kuzatilgan klinik belgilar, nobut bo'lish holatlari haqida batafsin ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** geliotrop, kampirchopon, lalmikor, zaharli, xo'jaliklar, quyon.

**Mavzuning dolzarbligi.** Respublikamizning lalmikor tumanlaridan yig'ilgan yem-hashaklar orasida zaharli o'simliklarning urug'lari uchrab turadi. Ular hayvonlarda ayrim kasalliklarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Lekin bu kasalliklarni ko'p hollarda veterinariya xodimlari o'z vaqtida aniqlay olmaydilar. Chunki ko'p hollarda zaharli o'simliklarning urug'i, bargi va novda parchalari, g'allani tozalash jaryonida chiqindi shaklida xirmon va don kombinatlarida yig'ilib qoladi, keyinchalik hayvonlar va parrandalar ozuqasiga qo'shib yedirib yuboriladi, natijada zaharlanishlar yuz beradi. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki zaharli o'tlardan zaharlanishlar turli hayvonlarda turlicha kuzatiladi. O'simliklardan zaharlanishlar orasida geliotropdan zaharlanishlar hozirgi kunda ko'pgina noaniq ichki yuqumsiz kasalliklarni keltirib chiqayotganligi va asosan ovqat hazm qilish tizimining buzilishi, birdaniga o'lim kuzatilishi bilan chorvachilik fermalariga iqtisodiy zararining keltirib chiqishi bilan ajralib turadi.

**Material va metodlar.** Tadqiqotlar Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti Toksikologiya va terapiya laboratoriyasida Jizzax viloyati Baxmal tumani, Samarqand viloyati Payariq tumanidagi dehqon-fermer xo'jaliklaridagi lalmikor dalalarda mavjud geliotrop va kampirchopon o'simliklarilaridan namunalar olib kelindi va laboratoriyaga mavjud quyonlaga berib tajribalar o'tkazildi.

Buning uchun quyonlar 4 guruhga bo'linib (3 boshdan) ajratildi. Tajribadagi quyonlarning omuxta yemiga kampirchopon va geliotrop o'simliklarining poya, guli, bargi va urug'lari qo'shib berildi. Ozuqa massasiga ko'ra 1- guruhga 50%, 2-guruh 30%, 3-guruh 10% miqdorda berildi. To'rtinchi guruh nazorat guruhi sifatida saqlandi va zararlantirilmadi.

**Tadqiqot natijalari:** Geliotrop va kaprirchopon o'simliklarining vegetativ va generativ davr mobaynida o'simliklarning poyasi, bargi, gullagan paytida quyonlarning 50% omuxta yemiga (beda uni) qo'shib 1-guruhga 50% geliotrop va kaprirchopon poyasi, bargi va guli aralashmasi, 2-guruhga 70% o/ye + 30% geliotrop va kaprirchopon poyasi, bargi va guli aralashmasi, 3-guruh quyonlariga 90% o/ye + 10 foizgacha geliotrop va kaprirchopon poyasi, bargi va guli aralashmasi bilan boqildi (1-jadval).

1-jadval

**Quyonlar organizmiga geliotrop va kaprirchopon o'simliklarning vegetativ va generativ davrida LD miqdorini aniqlash**

Guruhlar	Quyonlar bosh soni	Geliotrop o'simliklarning (poyasi va bargi, guli) aralashmasining miqdori	Beriladigan omuxta yemning miqdori
<b>I-tajriba</b>	3	50%	50%
<b>II-tajriba</b>	3	30%	70%
<b>III-tajriba</b>	3	10%	90%
<b>IV-nazorat</b>	3	-	100%

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra olib borilgan tadqiqotlarda quyonlarning geliotropdan zaharlanishi ikki oydan keyin o'z ta'sirini ko'rsatdi. Tajribadagi birinchi guruh 3 bosh quyonlarda bo'yin falajlanishi, oriqlash, ishtahadan qolish, ko'p suv ichishi, burnidan suyuqlikning oqishi kabi klinik belgilari namoyon bo'ldi. Ikkinchi va uchinchi guruhlarda esa o'zgarishlar sezilmadi.

Ikkinchi marta olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra geliotrop o'simligining urug'i bilan zararlantirish bo'lib, bu tadqiqotda ham 12 bosh quyonlar ajratib olindi va 4 guruhga bo'lib o'rganildi (2-jadval).

2-jadval

### Quyonlar organizmiga geliotrop o'simliklarning urug'lagan davrida LD me'yorini aniqlash.

Guruhlar	Quyonlar bosh soni	Geliotrop o'simliklarning (urug'i) aralashma miqdori	Beriladigan omuxta yemning miqdori
<b>I-tajriba</b>	3	50%	50%
<b>II-tajriba</b>	3	30%	70%
<b>III-tajriba</b>	3	10%	90%
<b>IV-nazorat</b>	3	-	100%

2-jadval bo'yicha geliotrop zaharli o'simligining urug'i quyonlar omuxta yemiga aralastirib berildi. Ushbu tajribada ham yuqoridagi tajriba singari olib borilib, 1-guruhga 50% omuxta yemi (beda uni)ga 50% geliotrop urug'i, 2-guruhga 70% o/ye + 30% geliotrop urug'i, 3-guruh quyonlariga 90% o/ye + 10 foiz geliotrop urug'i bilan boqildi.

Olib borilgan tadqiqotlarda tajribalardagi quyonlarda zaharlanishlar ikkinchi haftadan boshlab kuzatilgan bo'lib, kuchli intoksikatsiya yuz berganligi aniqlandi. Ikkinchi marta olib borilgan tajribalardan aniqlandiki birinchi guruh 3 bosh quyonlarda tez-tez siydik ajratish, bezovtalanish, tez-tez nafas olish, ishtahasizlik, burun va og'iz qismidan suyuqlikning ajralishi hamda uchinchi haftada umumiy ahvolining og'irlashishi natijasida o'lim kuzatilishi aniqlandi. Ikkinchi guruh quyonlarda ham uchinchi haftadan keyin zaharlanishning klinik belgilari namoyon bo'lib, umumiy ahvolining og'irlashishi tufayli to'rtinchi haftadan so'ng butun tananing falajlanishi (agonal) holatning yuz berishi natijasida o'lim holatlari yuz berdi. Uchinchi guruhdagi quyonlarda oriqlash, ishtahasizlik kuzatildi, lekin o'lim holatlari kuzatilmadi.

Tadqiqotlar davomida geliotrop o'simligi urug'ining LD (o'ldiruvchi miqdor) ni aniqlandi.

#### Xulosalar:

1. Quyonlar geliotrop va kampirchopon o'simligining poyasi, bargi va guli aralashmasi bilan boqilganda zaharlanish belgilari 2 oydan keyin namoyon bo'ldi.

2. 50% omuxta yemi (beda uni)ga 50% geliotrop urug'i qo'shib berilganda LD (o'ldiruvchi miqdor) bo'lishi aniqlandi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- Ibodullayev F. "Qishloq xo'jalik hayvonlarining patologik anatomiyasi" Toshkent-2000 yil.
- Vafoqulov B.H va boshqalar "Yovvoyi o'tlar va ulardan zaharlanishning oldini olish" Toshkent-1981
- Kariboyev K.K., Boymurodov T.B., Ibragimov J.X. Gossipol (organizmga ta'siri, zaharlanishlarni oldini olish choralari) broshyura, 22 bet, Samarkand 1999 yil.
- Полоз Д.Д. Профилактика отравления животных пестицидами. Ж. «Ветеринария», 1985 № 8. стр. 16.
- Элмуродов, Б., Муродов, Х., & Киямова, З. (2021). Патоморфологическая диагностика ларинготрахеита птиц. *in Library*, 21(4).

6. Элмуродов, Б., & Собиров, И. (2020). Меры профилактики инфекционной плевропневмонии коз. *in Library*, 20(4), 344-348.
7. Элмуродов, Б. (2019). Профилактическая эффективность формальной вакцины ГОА против пастереллеза, сальмонеллеза и колибактериоза сельскохозяйственных животных. *in Library*, 19(2), 312-315.
8. Элмуродов, Б., Набиева, Н., & Гаффоров, Ф. (2019). Меры профилактики пастереллеза кроликов. *in Library*, 19(2), 303-305.
9. Элмуродов, Б., & Алламурудова, М. (2019). Диплококкоз у ягнят. *in Library*, 19(3), 18-20.
10. Элмуродов, Б. (2018). Новый инновационный подход к диагностике и борьбе с инфекционными бактериальными болезнями молодняка животных. *in Library*, 18(4), 12-12.
11. Элмуродов, Б., & Дускулов, В. (2018). Пчеловодство–прибыльная отрасль. *in Library*, 18(4), 32-32.
12. Элмуродов, Б., Турдиев, А., & Набиева, Н. (2017). Ветеринарно-санитарные мероприятия в кролиководстве. *in Library*, 17(2).
13. Элмуродов, Б., & Джаббаров, Ш. (2016). Здоровый скот–спокойная душа. *in Library*, 16(4), 9-9.
14. Элмуродов, Б., & Джаббаров, Ш. (2016). Профилактика и лечение болезней животных. *in Library*, 16(1), 14-15.
15. Элмуродов, Б., Шопулатова, З., & Сатторов, Н. (2015). Эффективность профилактики заболеваний колибактериоза, сальмонеллеза молодняка животных. *in Library*, 1(1).
16. Элмуродов, Б., Салимов, Х., Давлатов, Р., Камбаров, А., & Тоиров, Ж. (2014). Защитим молодняк и цыплят от колисептицемии. *in Library*, 4(4).
17. Элмуродов, Б., Шапулатова, З., & Рузикулова, Б. (2014). Патологоанатомическая и лабораторная диагностика пастереллеза жвачных животных. *in Library*, 1(1).
18. Элмуродов, Б., Наврўзов, Н., Шопулатова, З., & Рузикулова, Б. (2014). О выявлении, лечении и профилактике инфекционных болезней молодняка животных. *in Library*, 2(2).
19. Элмуродов, Б. (2013). Защита телят и ягнят от болезней. *in Library*, 2(2), 32-32.
20. Элмуродов, Б. (2011). Здоровое животное–гарантия качественного мяса и обильного молока. *in Library*, 3(3), 43-44.
21. Элмуродов, Б., & Бутаева, И. (2008). Патологоанатомические изменения при смешанных бактериальных инфекциях птиц (экспериментальные исследования). *in Library*, 4(4), 17-18.
22. Элмуродов, Б. (2008). Выявление инфекционных болезней птицы. *in Library*, 1(1), 56-57.
23. Ахмадалиева, Л. Х., Элмуродов, Б. А., Орипов, А. О., Салимов, Х., Рuzимуродов, М. А., Исмадова, Р. А., ... & Улугмуродов, А. Д. (2021). ПРАВОВАЯ ОХРАНА ЗДОРОВЬЯ ЖИВОТНЫХ И ЭКОСИСТЕМ В НИИ ВЕТЕРИНАРИИ. In *Проблемы трансформации естественных ландшафтов в результате антропогенной деятельности и пути их решения* (pp. 378-382).
24. Bajenov, L. G., Ruzimurodov, M. A., Artyomova, E. V., & Ten, R. M. (2008). Study and application of crystallogenic properties of Brucella for their identification and differentiation. *Bulletin of the International Scientific Surgical Association*, 3(1), 22-23.
25. Рuzимуродов, М. А. (2018). Новые инфекционные подходы в борьбе с бруцеллезом. *Ветеринария тиббиёти*, (2), 14-15.
26. Рuzимуродов, М., Исмадова, Р., Кувватов, Б., & Улугмуродов, А. (2018). Создание коллекции эталонов производственных мтаммов бруцелл для конструирования отечественных противобруцеллёзных препаратов. *in Library*, 18(4), 9-11.
27. Ruzimurodov, M. A., & Nematov, A. S. (2005). Brucellosis as a natural focal infection in Uzbekistan. *Actual problems of infectious pathology. Thesis: Tashkent*, 9-10.